


## Korxonalar va tashkilotlar (2018 yil yanvar-oktabr)

2018 yilning yanvar-oktabr oyida viloyatda 2724 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 47,9 foizga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1521 ta (11,1%) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 15240 tani tashkil etgan.


### Korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'zida tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, xayotga tadbiiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




### Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 noyabr holatiga)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,7 % savdoda, 12,5 % sanoatda, 11,3 % qurilishda, 7,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,4 % tashish va saqlashda, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 1,3 % axborot va aloqada va 30,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




### Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2018-yil 1 noyabr xolatiga	
			Ro'yxatdan o'tgan, %	Faoliyat ko'rsatayotgan, %
<i>Surxondaryo viloyati</i>	16237	15240	100	100
Termiz sh.	3268	3206	20,1	21
<i>tumanlar:</i>				
Oltinsoy	634	583	3,9	3,8
Angor	776	733	4,8	4,8
Boysun	776	750	4,8	4,9
Muzrabot	705	687	4,3	4,5
Denov	1896	1658	11,7	10,9
Jarqo'rg'on	1241	1228	7,7	8,1
Qumqo'rg'on	1024	916	6,3	6
Qiziriq	840	819	5,2	5,4
Sariosiyo	917	817	5,7	5,4
Termiz	1170	1136	7,2	7,4
Uzun	934	880	5,7	5,8
Sherobod	1009	857	6,2	5,6
Sho'rchi	1047	970	6,4	6,4

2018 yil yanvar-oktyabr holatiga 2724 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 47,9 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Termiz shahrida (497 ta), Denov (344 ta), Sho'rchi (264 ta), Qumqo'rg'on (199 ta), Jarqo'rg'on (181 ta), Termiz (174 ta), Qiziriq (161 ta), Uzun (149 ta), Angor (145 ta), Sariosiyo (142 ta) tashkil etilgan. Eng kam Oltinsoy (91 ta), Boysun (107 ta), Muzrabot (133 ta), hamda Sherobod (137 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

## Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (659 ta), boshqa turlarida (584 ta), sanoatda (447 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (365 ta) va qurilishda (336 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (18 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (59 ta), hamda tashish va saqlashda (78 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	2016 yil 1 noyabr xolatiga			2017 yil 1 noyabr xolatiga			2018 yil 1 noyabr xolatiga		
	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	190	243,6	13,2	274	144,2	14,9	365	133,2	13,4
Sanoat	212	106,5	14,7	332	156,6	18,0	447	134,6	16,4
Qurilish	201	126,4	13,9	236	117,4	12,8	336	142,4	12,3
Savdo	400	117,6	27,7	422	105,5	22,9	659	156,2	24,2
Tashish va saqlash	81	150,0	5,6	106	130,9	5,8	78	73,6	2,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	159	139,5	11,0	209	131,4	11,3	178	85,2	6,5
Axborot va aloqa	30	272,7	2,1	19	63,3	1,0	18	94,7	0,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	18	94,7	1,2	30	166,7	1,6	59	196,7	2,2
Boshqa turlari	151	77,4	10,5	214	141,7	11,6	584	272,9	21,4


### Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 noyabr holatiga 11838 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 5509 ta, xususiy korxonalar – 5160 ta, oilaviy korxonalar – 725 ta, va boshqalar 444 tani tashkil etadi.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**

2018 yil 1 noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 161 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 103 taga yoki 277,6 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 65 tasi qo'shma korxonalar, 96 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.




### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda



### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda

Qo'shma korxonalar  
Xorijiy korxonalar

Jami xorijiy kapitali ishtirokidagi korxonalar soni




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Termiz shahar 66 ta (41,0%), Termiz 17 ta (10,6%), Denov va Sariosiyo tumanlarida 10 ta dan (6,2% dan), Jarqo'rg'on, Uzun va Angor tumanlarida 8 ta dan (5,0% dan), Muzrabot va Qiziriq tumanlarida 7 ta dan (4,3% dan), Qumqo'rg'on va Sherobod tumanlarida 6 ta dan (3,7% dan) hissalariga to'g'ri keladi.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Sho'rchi 4 ta (2,5%), Oltinsoy 3 ta (1,9%) hamda Boysun tumanlarida 1 ta (0,6%) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 noyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 50 ta (31,1 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 49 ta (30,4 %), savdoda 31 ta (19,3 %), qurilish va boshqa faoliyat turlarida 11 ta dan (6,8 %dan) tashkil qilgan. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda va axborot va aloqada 1ta dan (0,6 % dan), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2 ta (1,3 %) va tashish va saqlashda 5 ta (3,1 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)**



2018 yilning yanvar-oktabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 102 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 95 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 7 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-1 ta, Koreya Respublikasi - 1 ta, Germaniya Federativ Respublikasi - 1 ta, Buyuk Britaniya– 1 ta, Turkmaniston Respublikasi - 1 ta, Turkiya Respublikasi - 3 ta, Gruzya Respublikasi - 2 ta, Eron Islom Respublikasi - 4 ta, Qozogiston Respublikasi – 3 ta, Tojikiston Respublikasi - 4 ta, Afg'oniston Islom Respublikasi - 74 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-oktabr holatiga) birlikda**




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 42 ta, sanoatda 21 ta, savdoda 20 ta, qurilishda 9 ta, va boshqa faoliyat turlarida 10 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
soni, o'sish dinamikasi**

	2017 yil yanvar-oktabr			2018 yil yanvar-oktabr		
	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %
	7			102		
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	3	300,0	42,8	42	1400,0	41,2
Sanoat	2	66,7	28,6	21	1050,0	20,6
Qurilish				9		8,8
Savdo	2	200,0	28,6	20	1000,0	19,6
Tashish va saqlash				3		2,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar				1		1,0
Axborot va aloqa						
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish						
Boshqa turlari				6		5,9


**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**

2018 yil 1 noyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11750 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 oktyabr holatiga qaraganda 10,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2733 tasi (23,3%) Termiz shahriga, 1282 tasi (10,9%) Denov, 968 tasi (8,3%) Jarqo'rg'on hamda 977 tasi (8,3%) Termiz tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11750 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3595 tasi (30,6 %) – savdoda, 1878 tasi (16,0 %) - sanoatda, 1719 tasi (14,6 %) - qurilishda, 1102 tasi (9,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1060 tasi (9,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 666 tasi (5,7 %) - tashish va saqlashda, 218 tasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 186 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1326 tasi (11,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-oktyabr holatiga 2475 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 40,7 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz sh.(456 ta), Denov (324 ta), Sho'rchi (252 ta), Qumqo'rg'on (187 ta), Jarqo'rg'on (165 ta), Termiz (159 ta), Qiziriq (155 ta) va Angor (139 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Sherobod (130 ta), Uzun (124 ta), Sariosiyo (114 ta), Muzrabot (114 ta), Boysun (97 ta) hamda Oltinsoy (55 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (658 ta), sanoatda (447 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va (365 ta), boshqa turlarida (338 ta), qurilishda (335 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (178 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (78 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (58 ta) hamda axborot va aloqada (18 ta) tashkil etilgan.



### Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 noyabr holatiga 792 tani tashkil etib, ulardan 725 tasi yoki 91,5 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 22,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



**Ro'yxatdan  
o'tgan**



**Faoliyat  
ko'rsatayotgan**




**Yangi tashkil  
etilgan**



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 32,4 % yoki 235 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 24,0 % yoki 174 tasi sanoat, 22,8 % yoki 165 tasi savdo, 12,7 % yoki 92 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,7 % yoki 12 tasi tashish va saqlash, 1,2 % yoki 9 tasi qurilish, 0,8 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, hamda 4,1 % yoki 30 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi

Statistik registrarni yuritish bo'limi

Tel.:76-223-06-95